



2023-yil «1» mart 45 - sonli

Toshkent shahri

**“O‘zagrosug‘urta” AJda korrupsiyaga oid
huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki
korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda
ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish
tartibi to‘g‘risida Nizom”ni tasdiqlash**

“O‘zagrosug‘urta” AJda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish xamda ularni ushbu yo‘nalishga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan “O‘zagrosug‘urta” AJda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida Nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

“O‘zagrosug‘urta” AJda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu yo‘nalishda Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish; xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu yo‘nalishga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

3. “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvining Komplayens nazorat departamenti (**P.Turamuratov**) va Xodimlar bilan ishlash departamenti (**K.Eshbayev**) ushbu buyruqning mohiyati va ahamiyatini xodimlar o‘rtasida tushuntirilishi ta‘minlansin.

4. Ushbu buyruqni Jamiyatning hududiy filiallariga va tegishli departamentlariga yetkazish vazifasi Boshqaruvning Ijro etuvchi apparati (**D.Erkinjonov**) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi

 **Sh.Rasulov**

**“O‘zagrosug‘urta” AJda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablari asosida, “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, Jamiyat Boshqaruvi va filiallarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish va ularni ta‘qib etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- **vakolatli xodim** - korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar, ma‘lumotlarni ko‘rib chiqish, ro‘yxatga olish va tekshirish huquqiga ega bo‘lgan “O‘zagrosug‘urta” AJning Komplayens nazorat departamenti xodimlari;

- **rag‘batlantirish** - xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, yuksak kasbiy mahorati, qonuniylik talablariga rioya etishi borasida namuna ko‘rsatganligi uchun qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash;

- **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodim (xodimlar)** - “O‘zagrosug‘urta” AJ xodimi;

- **“O‘zagrosug‘urta” AJ xodimi** - “O‘zagrosug‘urta” AJ bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

- **korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish** - tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va/yoki jinoyat haqida xabar berish;

- **korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar** - O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

- **korrupsiyaga oid jinoyatlar** - O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167, 168, 192², 192⁹, 192¹⁰, 205, 206, 209, 210, 211, 212, 213, 214, 243-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar.

3. “O‘zagrosug‘urta” AJ tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirishning asosiy vazifalari:

- “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi va uning filiallarida korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart - sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

- Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olishda va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etishlari;

- tizimda sodir etilishi mumkin bo‘lgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, ularni oldini olishda faol ishtirok etishlari hisoblanadi.

II. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish asoslari va turlari

4. Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash bo‘yicha taklif va murojaatlar yuzasidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Boshqaruvning Komplayens nazorat departamentini xabardor etishlari shart. Komplayens nazorat departamenti o‘z navbatida olingan xabar bo‘yicha “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi raisini bildirgi orqali xabardor qiladi.

Bildirgida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

- xodimning xizmat joyi, lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undayotgan shaxsga oid yoki uning shaxsini aniqlashga ko‘maklashuvchi asosli ma‘lumotlar va boshqalar;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning mohiyati (mansab lavozimini suiistye‘mol qilish, pora olish va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etishga undash, hujjatlarni qalbakilashtirish va boshqalar);

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash usuli (muayyan xizmat yoki moddiy qimmatliklar taklif qilish, o‘ziga og‘dirishga harakat qilish va boshqa holatlar);

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan, sodir etilgan joy;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash holati tafsilotlari (telefon aloqa vositasi, suhbat jarayoni, shaxsiy muloqot, pochta jo‘natmasi orqali va boshqalar).

5. Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash maqsadidagi barcha mavjud materiallar bildirgiga ilova qilinadi va o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar bergan xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning oshkor etilishi taqiqlanadi.

7. “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi raisining ko‘rsatmasi bilan Komplayens nazorat departamenti, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik bo‘yicha yig‘ilgan xujjatlar to‘plamini qonuniy chora ko‘rish maqsadida xuquqni muxofaza qiluvchi idoralarga yuboradi.

8. Korrupsiyaga oid xuquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar "O'zagrosug'urta" AJ mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

9. Xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaatlari, huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish, to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganliklari uchun, ularni rag'batlantirish bo'yicha Komplayens nazorat departamenti Jamiyat Boshqaruvi raisi nomiga bildirgi orqali taklif kiritadi.

10. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar Jamiyatning odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

11. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

12. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida berilishi mumkin. Bunda, bir martalik pul mukofotining miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 829-sonli "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom" talablari asosida belgilanadi.

13. Jamiyatning odob-axloq komissiyaning raisi qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

14. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita Jamiyatning Boshqaruvi raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

IV. Yakunlovchi qoidalar

15. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid xuquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan Jamiyat xodimlarining hisobi korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens nazorat departamenti tomonidan yuritiladi.

16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

18. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunda belgilangan tartibda javob beradilar.